



AYOLLARDA BACHADON ICHI PATOLOGIYASI BILAN BOG'LIQ BEPUSHTLIKNI DAVOLASHDA GISTEROREZEKTOSKOPIYANING IMKONIYATLARI

Mansurova M.X., Najmidinov Z.N., Shukurov F.I.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

✓ Rezyume

Bachadonichi patologiyasi bilan bog'liq bepushtlik mavjud 80 nafar ayol tadqiqotga kiritildi, jumladan bachadon bo'shlig'i sinexiyasi bilan kasallangan 23 nafar bemor va endometriy polipli 37 nafar ayol tekshirildi, nazorat guruhini reproduktiv yoshdagi 20 nafar sog'lom ayollardan iborat edi. Bachadon bo'shlig'ida sinexiya bilan og'rigan 23 nafar ayolga gisterorezektoskopiya yordamida adgezioliz, 30 nafar ayolga polipektomiya o'tkazildi. Gisterorezektoskopiya dan foydalanish bepushtlik sabablarini bir vaqtning o'zida tuzatishga yordam beradi, bu esa endometriy patologiya tufayli bepushtlik bilan og'rigan ayollarning 83,4% homilador bo'lishga olib keldi.

Kalit so'zlar. bepushtlik, bachadon bo'shlig'ining sinexiyasi, endometriy polipi, gisterorezektoskopiya

ВОЗМОЖНОСТИ ГИСТЕРОРЕЗЕКТОСКОПИИ В ЛЕЧЕНИИ БЕСПЛОДИЯ У ЖЕНЩИН ОБУСЛОВЛЕННЫМ ВНУТРИМАТОЧНОЙ ПАТОЛОГИЕЙ

Мансурова М.Х., Нажмидинов З.Н., Шукуров Ф.И.

Ташкентская медицинская академия

✓ Резюме

Обследовано 80 женщин с бесплодием обусловленным внутриматочной патологией, из них 23 больных с синехиями полости матки и 37 женщин с полипами эндометрия, контрольную группу составили 20 здоровые женщины репродуктивного возраста. С помощью гистерорезектоскопии у 23 (10,8%) женщин с синехиями в полости матки произведено адгезиолизис, у 30 женщин полипэктомия. Применение гистерорезектоскопии способствует полной диагностике причин бесплодия, одновременной их коррекцией, что привело к частоте наступления беременности у 83,4% женщин с бесплодием обусловленным патологией эндометрия.

Ключевые слова. бесплодия, синехии полости матки, полип эндометрия, гистерорезектоскопия

THE ROLE OF HYSTERORESECTOSCOPY IN THE TREATMENT OF INFERTILITY IN WOMEN DUE TO INTRAUTERINE PATHOLOGY

Mansurova M.Kh., Nazhmidinov Z.N., Shukurov F.I.

Tashkent Medical Academy

✓ Resume

80 women with infertility caused by intrauterine pathology were examined, including 23 patients with synechia of the uterine cavity and 37 women with endometrial polyps, the control group consisted of 20 healthy women of reproductive age. With the help of hysteroscopy, 23 (10.8%) women with synechia in the uterine cavity underwent adhesiolysis, and 30 women underwent polypectomy. The use of hysteroscopy contributes to the complete diagnosis of the causes of infertility, their simultaneous correction, which led to the pregnancy rate in 83.4% of women with infertility due to endometrial pathology.

Key words. infertility, synechia of the uterine cavity, endometrial polyp, hysteroscopy

Dolzarbligi

Ayollarda reproduktiv funksiyasining buzilishi ko'plab sabablar natijasi kelib chiqadi, shunday sabablar ichida bachadon omili 24-62% ni tashkil qiladi [3,4]. Bachadon ichi patologiyalari ayollar bepushtligining 10-15%da bitta o'zi va 50% holatda boshqa omillar bilan birgalikda bepushtlikning sababchisi bo'lib hisoblanadi [5].

Bachadon ichi patologiyasi yig'ma tushuncha bo'lib, etiologiyasi va patogenezini bo'yicha bir biridan farq qiluvchi bir necha kasalliklarni o'z ichiga oladi: bachadon submukoz va sentrapetal o'sishi turlari, adenomioz, surunkali endometrit, endometriy giperplastik jarayonlari va bachadon ichi sinexiyalari [6]. Bachadon ichi patologiyalarini davolashning yagona va samarali yo'li bu gisterorezektoskopiya usulidir. Gisterorezektoskopiya bachadon ichi turli patologiyalarini davolash uchun kam jaraovatchan jarrohlik usuli bo'lib hisoblanib, bugungi kunda mazkur patologiyalarni jarrohlik yuli bilan davolashning eng ilg'or va samarali usullaridan biri hisoblanadi [7]. Bachadon bo'shlig'ining sinexiyasi va endometriy poliplari, bachadondan qon ketishidan tashqari, ko'pincha reproduktiv disfunksiyaning asosiy (bepushtlik, abort) sababchilari bo'lib hisoblanadi [8].

Bachadonda chandiq hosil qoldirmasdan organ saqlovchi jarrohlik usullaridan biri-gisterorezektoskopiyaning qo'llash homiladorlikni rejalashtirayotgan bemorlar uchun katta ahamiyatga ega [9]. Gisterorezektoskopiyaning klinik amaliyotga kiritilishi turli xil bachadon ichi patologiyalarni bartaraf etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi [10].

Biroq, endometriy patologiyasi bilan bog'liq bepusht ayollarni davolashda gisterorezektoskopiya foydalanishning ko'p jihatlari etarlicha yaxshi yoritilmagan.

Tadqiqotning maqsadi bachadon ichi patologiyasi bilan bog'liq bepusht ayollarni tashxislash va davolashda gisterorezektoskopiyaning imkoniyatlari o'rganishdan iborat.

Material va usullar

Tadqiqotga 80 nafar yoshi 20-35 yoshdagi bepusht ayollar kiritildi. Asosiy guruxga 23 nafar bachadon ichi sinexiyalari bilan va 37- nafar bachadon bo'shlig'i poliplari bilan kasallar (II- gurux) kiritildi. Nazorat guruxini esa, 20 nafar sog'lom ayollar tashkil qildi. Barcha bemorlarga klinik-laborator, gistomorfologik va instrumental tekshiruvlardan o'tkazildi. Gisterorezektoskopiyaning «Karl Storz» qurilmasini qo'llagan holda o'tkazildi. Gisterorezektoskopiya xayz siklining follukulyar fazasida o'tkazildi bunga sabab aynan mana shu muddatda bachadon ichini o'zini va undagi o'simalarni topik tashxislash ham oson bo'ladi. Barcha gisterorezektoskopik jarrohlik amaliyotini bajarilgan jarrohlik amaliyotlarida kesib olingan to'qima va qirmalarni gistomorfologik tekshiruvga junatildi. Olingan natijalarga statistik ishlov berish Statistica for Windows v. 7.0. dasturini o'zida jo qilgan dasturda amalga oshirildi. Ma'lumotlar $M \pm m$ ko'rinishida tavsiflandi. Statistik muhim farq deb $p < 0,05$ ga mos keluvchi farq olindi.

Natijalar va tahlillar


Bemorlarning o'rtacha yoshi $28,4 \pm 1,02$ yoshni tashkil etdi. Bepushtlikni davomiyligi 2 yildan 7 yilgacha bo'lgan muddatni tashkil etdi. Tadqiqot o'tkazilayotgan ayollarda gisterorezektoskopiya jarrohlik amaliyotini bajarayotganda qo'yilgan tashxislar tasdiqlandi ya'ni, 23 nafar (38,3%) ayollarda bachadon sinexiyalari va 37 (61,7%) nafarida endometriy poliplari aniqlandi. Bemorlardan 38,3% bachadon sinexiyasi mavjud ayollar asosan gipomenoreya, amenoreyaga shikoyat qilishgan bo'lishsa, 61,7% endometriy polipli ayollar nomuntazam uzoq muddatli xayz kelishiga shikoyat qilishdilar.

Endometriy poliplari ko'pincha bachadon tubida va bachadon naylari burchaklarida joylashganligi aniqlandi. Ularning shakli yumaloq, cho'zinchoq va konus shaklida aniqlandi. Ularning o'lchamlari 0,5 sm dan 2 sm gacha, soni esa 1 dan 2 gacha aniqlandi. Aniqlangan poliplarning rangi och pushti va och sariqdan och qizil ranggacha o'zgarib turardi. Barcha holatlarda poliplar organoid tuzilish ega edi: asosining - "oyoqlar"ning mavjudligi.

Gisterorezektoskopiya jarrohlik amaliyotini bajarish davomida olingan to'qimalarni patomorfologik tekshiruv xulosalari: 61,7% bemorlarda endometriy bez-fibrozli poliplari - u 38,3% va fibrozli to'qimalar aniqlangan. Bemorlarning 38,3% sinexiyasi mavjud ayollarda gisteroskopik adgeziolizis va 61,7% nafar ayollarda gisteroskopik polipektomiya jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Jarrohlik amaliyotlarini bajarishni barcha holatlarida intraoperatsion asoratlar kuzatilmadi. Gisterorezektoskopiya jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan bemorlarda xayz siklini tiklanishi guruxlarda mos ravishda 65% va 78%ni tashkil etdi.

Barcha 38,3% bachadon ichi sineziyalarini adgeziolizis jarrohlik amaliyotini bajarilgan ayollarda mavjud patologik holatlarni residivini oldini olish maqsadida "Yunona" bachadon ichi spirali, polipektomiya o'tkazilgan ayollarga esa "Mirena" bachadon ichi spirali kiritildi. Bachadon ichi spirali olib tashlangandan

keyin guruxlarda xayz faoliyatining tiklanishi mos ravishda homiladorlik bo'lish salmog'i guruxlarda mos ravishda 1- gurux ayollaridan 18 (60%) nafar 2-guruxda 21 (70%)ni tashkil etdi(rasmga qara).



Rasm. Tadqiqotga kiritilgan ayollarda xayz faoliyati tiklanishi va homiladorlik salmog'i, %

Shunday qilib, ayollarda bepushtlikni rivojlanishida bachadonichi patologiyalaridan sinexiyalar va poliplar katta o'rin tutib reproduktiv faoliyatini izdan chiqishishga olib keladi.

Bizning olingan ma'umotlarga ko'ra, gisteroresektoskopiya dan foydalanish endometriy patologiyasi sababli kelib chiqqan bepushtlikni tashxislash bilan bir vaqtning o'zida ularni to'liq bartaraf etishga yordam beradi, bu esa bemorlarda homiladorlik bo'lish salmog'ini 2,1 barobarga oshishiga olib keladi.

Xulosa

Bachadonichi patologiyalarni tashxislash va davolashda gisteroresektoskopik jarroxlilik texnologiyalarini qo'llash ayollarda bepushtlikni bartaraf etilishiga va ularda 83,4%da fertillikni tiklanishiga olib keladi. Endometriy patologiyalarni tashxislash va davolashda gisteroresektoskopiya dan foydalanish ushbu patologiyalar bilan bog'liq bepusht ayollarning homiladorlik bo'lish darajasini 2,1 barobarga (83,4%) ga oshishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адамян Л.В. Результаты восстановления репродуктивной функции у больных с внутриматочной перегородкой после хирургического лечения и новые пути решения проблемы // Проблемы репродукции. – 2011. – Т.17(1). – С. 35–40.
2. Абашидзе А. А. Структура бесплодия. О чем не стоит забывать // Справочник врача общей практики. – 2014. – № 4. – С. 81–84.
3. Белякин С.А. Гистерорезектоскопия в лечении гинекологических заболеваний // Военно-медицинский журнал. – 2011. – №9. – С.59-61.
4. Корнеева И.Е. Общая концепция диагностики и классификации форм бесплодия. Бесплодный брак. Современные подходы к диагностике и лечению: руководство. Под. ред. Г.Т. Сухих, Т.А. Назаренко. 2-е изд. испр. и доп. - М.: ГЭОТАР–Медиа, 2010. – С. 21–52.
5. Фалконе Т. Репродуктивная медицина и хирургия /Слинисал репродуктивне медисине анд сургерй / Т. Фалконе, В. В. Херд, пер. с англ. под ред. Г. Т. Сухих. – Москва: ГЭОТАР–Медиа, 2013. – 948 с.
6. Dawood A. Predisposing factors and treatment outcome of different stages of intrauterine adhesions / A. Dawood, A. Al-Talib, T. Tulandi // J. Obstetrics Gynaecol. Can. – 2010. – Vol.32(8). – P. 767–770.
7. Deans R. Review of intrauterine adhesions / R. Deans, J. Abbott // J. Minim. Invasive Gynecol. – 2010. – Vol.17. – P. 555–569.
8. Charles E. Miller. Reconstructive and Reproductive Surgery in Gynecology // Journal of Minimally Invasive Gynecology. – 2012. – Vol 19, №3. - P. 403.
9. Etiology treatment, and reproductive prognosis of women with moderate-to-severe intrauterine adhesions / S. Xiao [et al.] // International Journal of Gynecology and Obstetrics. – 2014. – Vol.125. – P. 121–124.
10. Shukurov F.I., Ayupova F.A. The Role of Reproductive Surgery in Diagnostics and Treatment of Combined Pathologies in Women with In fertility Caused by Ben ign Structural Changes of Ovaries// American Journal of Medicine and Medical Sciences, Volume 9, Number 6, May–2019 P-210-212.

Qabul qilingan sana 09.09.2022